

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIY ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Burxanov Xusniddin,


Sotsiologiya fanlari doktori (DSc),

O‘zbekiston Milliy universiteti

“Sotsiologiya” kafedrası mustaqil izlanuvchisi

ye-mail: doktorantt@mail.ru

RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354926>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy nazariy-metodologik asoslari o‘rganilgan. Shuningdek, jamiyat shakllanishi va uning tadrijiy rivojlanishi o‘zaro axborot almashinuvi samarasiga bog‘liqligi, milliy saytlar o‘rnini sotsiologik jihatdan tadqiq etish ilmiy muammolari yoritilgan. Insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida raqamli jamiyatdagi axborot xavfsizligini ta’minlash zaruriyati nazariy-metodologik jihatlarini o‘rganish bevosita va bilvosita modernizatsiyalashuv bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Bundan tashqari, jamiyatda axborot tarqatish mexanizmlari takomillashayotgani, internetda tarqatilayotgan turli axborot bosimining tobora kuchayib borayotganligi va shaxsning axborotga bo‘lgan intilishi ortib, fuqarolarni yot mafkuraviy axborot bosimidan asrash, uning salbiy ta’sirini kamaytirish vazifasi vujudga kelayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga axborot xavfsizligini ta’minlash zaruriyatining nazariy-metodologik jihatlari jahondagi axborot ekspansiyasi kuchayib borayotganligi va davlatning demokratik islohotlardagi suveren taraqqiyotiga milliy saytlar faolligi oshib borish tendensiyasiga e’tibor qaratildi. Bunda raqamli jamiyat shakllanish va rivojlanish jarayoni, uning takomillashuv jarayonidagi kommunikativ omillar tasnifi berilib, global internet tarmog‘idagi milliy saytlar transformatsiyasida shaxs axborot xavfsizligini ta’minlash jarayoni tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Internet, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat, datifikatsiya, sun’iy intellekt, milliy saytlar, texnologiya, raqamli media, ijtimoiy ta’sir, ijtimoiy institut.

Бурханов Хусниддин,

доктор социологических наук (DSc),

независимый научный сотрудник

кафедры Социологии НУУз

e-mail: doktorantt@mail.ru

СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются социальные теоретико-методологические основы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе. Подчеркивается

зависимость становления общества и его постепенного развития от эффективности взаимного информационного обмена, а также научные проблемы социологического изучения роли национальных веб-сайтов. Выявлено, что изучение теоретико-методологических аспектов необходимости обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе на новом этапе развития человечества напрямую и косвенно связано с модернизацией. Кроме того, показано, что механизмы распространения информации в обществе совершенствуются, увеличивается давление разнообразной информации, распространяемой в Интернете, увеличивается потребность человека в информации, возникает задача защиты граждан от давления чуждой идеологической информации и снижения ее негативного воздействия. При этом уделено внимание теоретико-методологическим аспектам необходимости обеспечения информационной безопасности, усиливающейся информационной экспансии в мире и тенденции повышения активности национальных сайтов для суверенного развития государства в условиях демократических реформ. В этой связи рассматривается процесс становления и развития цифрового общества, классификация коммуникативных факторов в процессе его совершенствования, а также исследуется процесс обеспечения информационной безопасности личности при трансформации национальных сайтов в глобальную сеть Интернет.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, цифровое общество, датафикация, искусственный интеллект, национальные сайты, технологии, цифровые медиа, социальное воздействие, социальный институт.

Burkhanov Khusniddin,
Doctor of Sociology (DSc),
Independent Researcher of the Department of Sociology,
National University of Uzbekistan
e-mail: doktarantt@mail.ru

SOCIAL THEORETICAL-METHODOLOGICAL BASIS OF ENSURING INFORMATION SECURITY IN THE DIGITAL SOCIETY

ABSTRACT

This article studies the social theoretical and methodological foundations of ensuring information security in the digital society. It also highlights the dependence of the formation of society and its gradual development on the effectiveness of mutual information exchange, and the scientific problems of sociologically studying the role of national websites. It is revealed that the study of the theoretical and methodological aspects of the need to ensure information security in the digital society at a new stage of human development is directly and indirectly related to modernization. In addition, it is shown that the mechanisms for disseminating information in society are improving, the pressure of various information distributed on the Internet is increasing, and the desire of a person for information is increasing, and the task of protecting citizens from the pressure of foreign ideological information and reducing its negative impact is emerging. At the same time, attention was paid to the theoretical and methodological aspects of the need to ensure information security, the increasing information expansion in the world and the trend of increasing activity of national sites for the sovereign development of the state in democratic reforms. In this regard, the process of formation and development of the digital society, the classification of communicative factors in the process of its improvement are given, and the process of ensuring personal information security in the transformation of national sites in the global Internet network is studied.

Keywords: Internet, information security, digital society, datafication, artificial intelligence, national sites, technology, digital media, social impact, social institution.

KIRISH

Jamiyat va davlatning tadrijiy shakllanishi va uning rivojlanishi yoki tanazzulga yuz tutishi bevosita va bilvosita axborot xavfsizligiga bog‘liq bo‘lgan. O‘tgan vaqt davomida, eng avvalo, milliy veb-resurslar soni 10 foizga o‘shib, ularni Internet jahon axborot tarmog‘ida ilgari surish va ommalashtirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ikkinchidan, davlat axborot veb-resurslari, jumladan, rasmiy veb-saytlarni rivojlantirish, Internet tarmog‘ida davlat tuzilmalari faoliyatiga doir matnli, foto, audiovizual materiallar bankini tashkil etildi. Shuningdek, nafaqat davlat ommaviy axborot vositalari (OAV), balki nodavlat va xususiy OAVning ommaviy ijtimoiy tarmoqlari va mobil messendjerlardagi ishtiroki kengaydi. Uchinchidan, maktabgacha ta‘lim, o‘rta va oliy ta‘lim tizimlari uchun elektron ta‘lim resurslari yanada takomillashib, bunda mahalliy va jahon ta‘lim resurslariga kirish imkoni ta‘minlandi. To‘rtinchidan, Internet foydalanuvchilarining intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ko‘maklashadigan zamonaviy veb-resurslari shakllantirilib, axborot makonida O‘zbekiston tarixi, fani, madaniyati va san‘atini targ‘ib qilish ommalashdi. Beshinchidan, kutubxona muassasalari faoliyatiga kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy qilinib, foydalanuvchilarning axborot resurslariga masofadan kirishi imkoniyati samarali tashkil etildi. Boshqacha aytganda, Internet jahon axborot tarmog‘ida xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlandi. Oltinchidan, Internet tarmog‘ining global va milliy segmenti rivojlanishi tendensiyalarini muntazam o‘rganilib, milliy kontentni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik joriy etildi. Natijada normativ-huquqiy baza takomillashtirildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida, ya‘ni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategik dasturida mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati qayd etilgan.

METODOLOGIYA

Raqamli jamiyat rivojlanishi g‘oyasining ommalashuviga sotsiolog nazariyotchi olimlarning “Kelajakdagi postindustrial jamiyat” nomli kitobi muhim metodologik manbalar qatoriga kiradi [1, – B.39]. Tadqiqotda sotsiolog olim jamiyat rivojlanishini uch agrar, industriallashgan va postindustriallashgan bosqichlarga ajratadi. Bunda postindustriallashgan bosqichda raqamlashgan jamiyatga o‘tilishi isbotlanadi. Shuningdek, olimlar tomonidan axborot xavfsizligi tushunchasi texnologik va ijtimoiy jihatdan yondashilishi mumkin bo‘lgan tushuncha sifatida izohlanadi [2, – B.165] va axborot xavfsizligini ta‘minlash texnologik yechimga ega ekanligi hamda ijtimoiy jihatdan ham axborot xavfsizligini ta‘minlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini axborot xavfsizligi bo‘yicha nazariyalarda ko‘rsatib o‘tiladi [3, – B.95].

ASOSIY QISM. Sotsiolog olimlarning axborot xavfsizligini ta‘minlashga qaratgan nazariy mulohazalari turli yo‘nalishlarda shakllangan. Bu borada to‘rtta yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yo‘nalish sifatida axborot xavfsizligini jamoaviy xavfsizlik sifatida qarashlar mavjud. Ushbu masalada g‘arb olimlari tomonidan jamoatchilikda raqamli jamiyatni kuchayib borayotganligi kabi omillar isbotlangan [4, – B.594]. Shuningdek, bu yo‘nalishda Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg‘unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo‘lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta‘minlash ehtiyoji Sharqda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi [5, – B.9]. Bu bugungi kunda jamoalar internet milliy segmentlarini yaratish orqali o‘z xavfsizligini ta‘minlashga qilgan harakatlarida ko‘rinadi. Bundan tashqari yoshlar afzal ko‘radigan va qabul qiladigan asosiy axborot internet va ijtimoiy tarmoqlardan olinadi [6, – B.28].

Ikkinchi yo‘nalishdagi olimlar siyosiy jihatdan axborot xavfsizligini tizim sifatida ko‘rib, undagi muammolarning ijtimoiy oqibatlarini haqida ilmiy tahlillar bergan. Mazkur yo‘nalishda chet ellik olimlar mulohazalarida raqamli sotsiallashtirish boshlangan davrda internetni nazorat qilib borish zarurligi va internet davlatlar aholisini siyosiy qarashlarini o‘zgartirayotganligi ochib berilgan [7, – B.292]. Bundan tashqari, o‘zbekistonlik fan namoyondalari olimlar siyosiy jihatdan axborot xavfsizligini tizim sifatida ko‘rib, undagi muammolarning ijtimoiy oqibatlarini haqida ilmiy tahlillar bergan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta‘minlash masalasini siyosiy jihatdan asoslari yaratilgan [8, – B.153] va axborot xavfsizligini ta‘minlash masalasi milliy xavfsizlikni elementi sifatida qaralgan. Shuningdek, axborot xavfsizligi sohasida yoshlar siyosatini

to'g'ri tashkil etish bo'lib, bu borada sotsiolog olimlar O'zbekistondagi yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar siyosatining ijtimoiy jihatlari, migratsiya jarayonlari tahliliga alohida e'tibor qaratishgan bo'lib, bugungi kunda yot g'oyalarga tez beriluvchi va axborotni tez o'zlashtiradigan yoshlarni turli buzg'unchi g'oyalardan himoyalash hamda ularni ishonchli axborot bilan ta'minlash masalalarini ham olib chiqishgan. Bu borada Yangi O'zbekiston yoshlar ijtimoiy-innovatsion faoliyatida transformatsion jarayonlar kechayotganligi [9, – B.63] sharoitda axborot xavfsizligi masalalari ko'rib chiqilgan.

Uchinchi yo'nalish davlatda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash masalasi bo'lib, texnologiyalar sotsial hayotga psixologik ta'sir etishi, jamiyatni raqamlashtirilishini inson ongiga ta'siri va uni o'zgartirish [10, – B.31], platformalarini rivojlanishi axborot psixologiyasini o'zgarishlarni ta'minlashi va internetni axborot sohasida yangi kuchga aylanayotganligini ko'rish mumkin [11, – B.704]. Shuningdek, o'zbekistonlik olimlar davlatda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash masalasini keng yoritishgan bo'lib, bu borada tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan va axborot psixologik ekspansiya xavfsizlikka tahdid ekanligi ko'rsatilgan [12, – B.251].

To'rtinchi yo'nalishda axborot xavfsizligining huquqiy jihatlari bo'lib, internet axborot tarmog'ida tarqatilayotgan axborotlardan samarali foydalanish, ushbu axborotlarga foydalanuvchilarning ishonuvchanligiga olib keluvchi sabablarga huquqiy baho berilgan. Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlashda internetni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim [13, – B.509] va raqamlashtirishni kirib kelishi jamiyatni nazorat qilishni osonlashtiradi. Shu bilan birga milliy saytlarni huquqiy asoslarini yaratish axborot xavfsizligini ta'minlashni milliy qonunchiligini kuchaytiradi [14, – B.29].

Shu bilan birga mazkur yo'nalishda o'zbekistonlik sotsiolog olimlar axborot olish madaniyatini tahlil qilgan bo'lib, O'zbekiston yoshlarining elektorial madaniyati muammolari [15, – B.28] va yoshlarni internetdan foydalanishi, jinoyatchilikning oldini olishning ijtimoiy mexanizmlari hamda ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati shakllanayotganligi ko'rsatilgan [16, – B.62].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, raqamli jamiyatda milliy saytlar transformatsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari ijtimoiy jarayon sifatida o'rganilmagan. Raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Shuni hisobga olgan holda ushbu masalada tadqiqot olib borish bugungi kunda zaruratga aylanib bormoqda.

Aksariyat sotsiolog olimlar raqamli jamiyatning mazmuni, uning tadrijiy rivojlanish bosqichlari va taraqqiyotiga ilmiy baho berishda asosan uning texnologik infratuzilmasi elementlari, ya'ni aloqa tarmoqlari, ilmiy asoslangan ma'lumotlar, turli algoritmlar va platformalar yig'indisini hisobga olgan holda javob topishga harakat qilishmoqda. Bunda raqamli jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartiblashtirishni idrok qilishda, uning mazmun-mohiyati texnologik infratuzilma elementlarining ishlashiga asoslangan tarmoqlashtirish, ma'lumotlarni tanlash, algoritmlash va platformalashtirish jarayonlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarning har biri ularning sotsiologik tavsifi nuqtai nazaridan tavsiflanmoqda. Inson faoliyatiga axborot bosimi tendensiyalari kuchayib, Internet platformalarida ma'lumotlar bilan ishlaydigan algoritmlar va algoritmik tizimlarning har tomonlama takomillashuvi "raqamli jamiyat" va "platformalar" majmuasi tushunchalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshqacha aytganda, raqamli jamiyat va davlatning yangi taraqqiyot bosqichi ijtimoiy jarayonlar o'zgarimoqda.

Ushbu o'zgarishlar sotsiolog tadqiqotchi V.Bek tomonidan "Zamonaviy dunyoning metamorfozlari" asarida yoritilgan. Uning fikricha, jamiyat tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda – odatiy mavjudlikning antropologik konstantalari va jahonda o'rnatilgan tushunchalarni buzadigan zarbaga olib keladigan metamorfozlardir. Turli xil metamorfozlar, jumladan, raqamlarni tadqiq qilib, jamiyatning soni tizimi raqamlashgan aloqalarning tarqalishi, onlayn va oflayn makonlarning gibridlanishi va ma'lumotlar texnologiyalaridan samarali foydalanish natijasida yuzaga keladi, deb hisoblaydi [17, – B.240]. Bizningcha, raqamli jamiyatdagi bunday strategik siljishlar natijasida

ijtimoiy rivojlanish jarayoniga nisbatan turli o'zgartirishni talab qiladi. Bunda sotsiologik nazariyalar ana shunday yondashuvni maqullab, raqamli jamiyat butunlay vositachilikka aylanadi [18, – B.1]. Bunda soha olimlari tomonidan raqamli jamiyatning rivojlanish tendensiyalarini sotsiologik nuqtai nazardan tavsiflanmoqda. Darhaqiqat, raqamli jamiyatning murakkab texnologik infratuzilmasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish natijasi, o'zaro chambarchas bog'langan turli elementlar to'plamidagi tartiblashtirishning mohiyatini ifodalaydi. Muayyan masalaning yechimi yoki jarayoniga ma'lum bir shaxs harakati yoki harakatsizligi bevosita ta'sir o'tkazish uchun mo'ljallangan ma'lumotni yig'ish, algoritmlash, platformalashtirish va tarqatish sotsiologik tahlil qilish asosida shakllanadi.

Bu borada avstraliyalik sotsiolog N.Selvin raqamli jamiyat mohiyati, uning shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etgani diqqatga sazovor. Mutaxassis muammoning yechimiga kompleks yondashib, hozirgi davrda keng tarqalgan va muhim ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan 4 ta texnologiyani mustaqil o'rganadi [19, – B.134]. U asosiy e'tiborni tarmoq kommunikatsiyalari, ilmiy asoslangan yig'indisi shaklidagi ma'lumotlar texnologiyalari, algoritm va platformalar zaruriyatiga qaratgan. Uning fikriga qo'shilgan holda raqamlashtirishni tavsiflash uchun asos sifatida tarmoq, ma'lumotlar, algoritmlash va platformalashtirish jarayonlarini tahlil qilib, jumladan, zamonaviy raqamli jamiyatning asosiy xususiyatlari yoritilgan. Ayni paytda raqamli jamiyatda inson omili va qadri masalasi ham e'tibordan chetda qolmagani dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida "raqamlashtirish" so'zi negizida "raqamli jamiyat" tushunchasi shunchalik odatiy holga aylandiki, ulardan maqsadli foydalanish jarayoni avj oldi. Biroq, bu tushunchalarning mohiyatini aniqlash juda murakkabligi tufayli ularning umumlashgan va barcha uchun maqbul talqini bugungi kunda ham mavjud emas. Ushbu atamalar kelib chiqishining etimologik jihatliklari o'rganilmay faqat uning ko'rinishi "son" tushunchasi o'zgarishi bilan bog'liqligi kayd etilgan [20, – B.1763]. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda "raqamli" tushunchasidan foydalanishda turli axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga ishora qilingan [21, – B.16]. "Raqamli" atamasi "analog" atamasidan farqli ravishda ta'riflanib, axborotni analog shakldan raqamli shaklga o'tkazish jarayoni "raqamlashtirish" deb izohlangan. Sotsiolog tadqiqotchilar ko'pincha "raqamlashtirish"ni inglizcha "digitization" yoki "digitalization" tushunchalari bilan almashtirishini kuzatish mumkin. Bunga sabab bu atama ingliz tilida o'xshash yozilishidir. Garchi o'xshashlikka qaramay, bu atamalarning ta'riflari juda jiddiy farqlarga ega. Agar birinchisi, ma'lumotlarni o'zgartirishning texnik jarayoniga taalluqli bo'lsa, ikkinchisi esa potensial raqamlashtirilishi mumkin bo'lgan kundalik hayotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning bevosita integratsiyasi bilan bog'liq [22, – B.31].

Jahondagi globallashtirish jarayonida inson tafakkuriga axborot bosimi kuchayib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida insoniyatning internet tarmog'iga qaramlik darajasi ortib bormoqda. Shu bois, internet tarmog'i jamiyatdagi mustaqil va ijtimoiy qarashlarni shakllantirib, ommalashish jarayoniga bevosita ta'sir etmoqda. Ya'ni voqelik jarayonlari o'zgartirishida asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Bunda, Internetdan foydalanishning kengayishi, inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, shubhasiz global tarmoqda axborot almashinuviga xizmat qilmoqda. Natijada Internet tarmog'i insonlar uchun samarali aloqa vosita sifatida ular faoliyatining jadallashuviga sabab bo'ldi. Dunyoning barcha mamlakatlarida internet orqali e'lon qilinayotgan axborotdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda.

Raqamli jamiyatda internet tarmog'i saytlarini kengaytirishga bo'lgan ijtimoiy, talab va ehtiyojning keskin ortishi, individning qiziqish va intilishlarini ta'minlovchi virtual axborot makoni sifatida namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham global tarmoqda turli xil, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy mazmundagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan saytlar soni ortib bormoqda. Bunday saytlarda shaxs faoliyati uchun zarur bo'lgan, uning ilmiy, kasbiy va ijtimoiy qiziqishini ta'minlaydigan axborot mavjud bo'ladi. Raqamli jamiyat davrida istiqomat qilayotgan shaxsning siyosiy, axloqiy va ma'naviy madaniyatini shakllantiruvchi va uni yo'naltiruvchi axborot majmui ham internet saytlarida o'z ifodasini topgan. Bunda yosh avlodning ijtimoiylashuvini ta'minlashga undaydigan ma'lumotlar to'plami, ya'ni muayyan fanlar bo'yicha dunyoviy bilimga ega bo'lish,

hordiq chiqarish, mustaqil hayotni tashkil qilish, uning muammolarini hal qilishga undovchi axborot majmui internet tarmog'ida saytlarga joylashtirilgan.

Yangi rivojlanish bosqichida Internetning jadal rivojlanib borishi natijasida tarmoqda joylashtirilgan axborotni turli yo'nalishlarga bo'lib, mazmun shakliga binoan guruhlash jarayoni kuzatilmoqda. Internet tarmog'ida yoshlar faoliyatiga oid ma'lumotlar, jumladan, o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy o'quv yurtlarida hozirgi ijtimoiy hayotni tasvirlovchi, tahlil etuvchi, ta'lim olish, dam olish maskanlari, sport musobaqalaridagi ishtirokini yorituvchi veb- saytlar shakllandi. "Yoshlar saytlari" atamasining vujudga kelishi bevosita jahondagi yetakchi mamlakatlarning globallashuv jarayoniga kirishi, ijtimoiy, iqtisodiy, tashqi savdo, madaniy aloqalari tezlashuvi, davlatlararo mintaqaviy munosabatlar chuqurlashuvi, turli yo'nalishdagi xalqaro uyushmalar, ittifoqlar va tashkilotlar shakllanish va mustahkamlash jarayoniga xizmat qildi. Xususan, Rossiya Federatsiyasiga mansub bo'lgan internet saytlarida asosan "Yoshlar sayti", veb-sahifalarida yoshlarga oid qiziqarli ma'lumotlar, kliplar, ko'ngilochar seriallar, on-layn sport musobaqalari mavjud. Natijada yoshlar o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni maqsad qilgan, turli ijtimoiy qatlam vakillariga, jamiyatdagi muayyan institutlarga mansub yoshlar tashrif buyuruvchi saytlardir.

Internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlarning asosiy foydalanuvchilari yoshlar ekanligi, unda taqdim etilayotgan tezkor aloqa imkoni yoshlar saytlarini jadallik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bunday kommunikativ imkoniyatlar yoshlarning Internet imkoniyatlariga ishonchini oshirib, ularni turli mamlakatlardagi hamkorlari, do'stlari, hamkasblari, qarindoshlari va izdoshlari bilan o'zaro ishonchli aloqa vositasi rolini bajardi. Shu bilan birga aksariyat yoshlar internet tarmog'ida o'z vaqtini o'tkazib, ba'zi salbiy axborotga uchrab, buzg'unchi g'oyalar singdirilgan saytlar ta'siriga tushib qolmoqda. Ayrim xorijiy davlatlarda zararli ta'sirga ega bo'lgan, yoshlar faoliyatidagi tajovuzkorlik, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg'unchilik, vayronkorlik mazmunidagi g'oyani tashviqot qiluvchi Internet saytlarining soni ortmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda Internet tarmog'ida ma'naviy buzuqlik va turli g'arazli maqsadlar orqali konstitutsion tizimga qarshi, demokratik jamiyat qurish talablarini inkor etishni targ'ib qiluvchi, tinch-osoyshta ijtimoiy, iqtisodiy turmushni buzishga undovchi faoliyat bilan shug'ullanayotgan turli saytlar faoliyat yuritmoqda. Darhaqiqat, chet el ijtimoiy tarmoqlar turli mamlakat aholisi tomonidan keng foydalanilayotgani bois o'sha jamiyatning ijtimoiy fikriga ta'sir etmoqda.

Internet tarmog'ida kiberhujumdan himoyalani uchun milliy saytlarda milliy g'oya, maqsadi va mazmuniga xizmat qiluvchi rivojlanish davridagi Yangi O'zbekistonda strategik taraqqiyot jarayonida yoshlar kelajagini ta'minlovchi yutuqlarni targ'ib qiluvchi milliy kontentlarni takomillashtirish, ularga yoshlarni keng jalb etish zaruriyati mavjud.

Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli jamiyat taraqqiyotini ta'minlash uchun xizmat qilayotgan mamlakatimiz yoshlari ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Shu bois Internet tizimidagi ijtimoiy tarmoqlardagi maqolalar mazmunini, eng avvalo, sotsiolog olimlar tomonidan chuqur tahlil qilinishi; ikkinchidan, ularning mazmun-mohiyatini yoshlarga ta'sirini mustaqil o'rganilishi; uchinchidan, uning yo'nalishi, ya'ni qaysi ijtimoiy institut, guruhlarga mo'ljallanganini aniqlash; to'rtinchidan, uning tarqatilish mexanizmlari, hujumkorlik jihatlariga ham e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli jamiyat rivojlanishi davrida ijtimoiy tarmoqlar texnik imkoniyatlarining jadalligi, undagi turli axborotga o'z vaqtida ega bo'lish uchun zarur bo'lgan tezkorlik, ma'lumotlar mazmuni, uning ifodalanishi bilan ajralib turishi, auditoriya ishonchini qozona olishidagi mantiqan tuzilishi bilan yoshlarni o'ziga jalb etib bormoqda. Ayniqsa, messengerlar orqali matnli xabarlar, ovozli signallar, rasmlar, vidno va audio mahsulotlarini yuborish mumkin. O'uningdek, ular orqali rasmlar chizish va o'yinlar o'ynash imkoniyati ham mavjud.) veb-saytlar hozirgi virtual imkoniyatlar sharoitida jadal rivojlanmoqda. Binobarin, messengerlardan foydalanishning qulayligi va arzonligi uning auditoriyasi sonining keskin ortishiga olib kelmoqda.

Mazkur axborot texnologiyalarining foydalanuvchilari messenger orqali matnli xabar, rasm, video, audio mahsulotlarini yuborish va uni qabul qilib olishi mumkin. Natijada maxsus dasturlar orqali multimediyaga mahsulotlari hajmi kichraytirilishi natijasida ularning yuklamasi uchun

sarflanadigan Internet trafigi kamayadi. Shuningdek, texnologiyalarning arzonligi ham foydalanuvchilarni o‘ziga jalb qilmoqda.

Globalashuv jarayoni kengayishi, raqamli jamiyat atributlarining kuchayishi sharoitida aholining Internetdagi saytlardan axborot olish va uni tarqatish hajmi ortib bormoqda. Bunday vaziyatdagi milliy segmentni rivojlantirishda uni mazmunan boyitib, yanada takomillashtirish uchun faoliyat yuritish, veb-saytlarni mamlakatimizdagi demokratik islohotlar mazmuniga mos axborot majmuasi bilan tizimli to‘ldirib borish talab etilmoqda.

Raqamli jamiyatda har qanday axborot, xususan, buzg‘unchi g‘oyalar singdirilgan ma‘lumot axborot texnologiyalari orqali katta tezlikda dunyoga tarqalib, muayyan davlatda turli muammolarni, ijtimoiy ixtiloflarni keltirib chiqarishi xech gap emas. Shu nuqtai nazardan raqamli jamiyatning bosh maqsadi har bir shaxsga ixtiyoriy holda, muayyan mazmundagi ma‘lumotlar majmuiga ega bo‘lish uchun huquqiy va ijtimoiy kafolatning ta‘minlashdan iborat.

«Axborot jamiyati» termini tarixiga ko‘ra, bu ilmiy tushunchani birinchi bo‘lib, Tokio texnologiya instituti professori Yu.Xayashi qo‘llagan. Bu atamaning asosiy tasnifi Yaponiya hukumatiga taqdim etilgan rasmiy hujjatlarda, jumladan, «Yapon axborot jamiyati: mavzu va yondashuv» mavzuidagi ilmiy tadqiqotda [23, – B.178] o‘z aksini topgan. Mazkur hujjatlar xulosalarida industrilashgan jamiyatda ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning innovatsion darajada ta‘minlash sharoitida kompyuterlashtirishni rivojlanishi individga turli axborot manbalaridan erkin foydalanishga yordam berishi bilan izohlanadi. Demak, raqamli jamiyat rivojlanishi innovatsion axborot majmuini, mahsulot sifatida ishlab chiqarish, yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta‘minlovchi omillardan biri bo‘lib, insonning intellektuallashuvi uchun zarur bo‘lgan axloqiy va ma‘naviy jihatlarni harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

XULOSA

Atamalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, globalizm davrida «milliy segment» yangi tushuncha sifatida shakllanib, yoshlarning ijtimoiy qiziqishi, ta‘lim-tarbiyasiga oid ma‘lumotlar bilan boyitilgan saytlar sifatida baholanmoqda.

Bugungi kunda nisbatan yangi “axborot quroli” atamasi tez-tez uchraydi, ular mazmunan harbiy san‘atda inqilobni anglatadi. Ilk bor 1988 yil AQShga qo‘llanilgan. Axborot quroli “jamiyat hayotini yuqori texnologik ta‘minlashni va davlat faoliyatining barcha bo‘g‘inlarini yo‘ldan chiqarishdir”. Shuningdek, axborot quroli turli yo‘llar bilan axborot hujumini uyushtiruvchi vositalardir [24, – B.30], yuqori texnologik ta‘minlashni va davlat faoliyatining barcha bo‘g‘inlarini yo‘ldan chiqarishdir». Axborot qurolning jiddiy ustunliklaridan biri uning boshqa qurollardan nisbatan arzonligi hisoblanadi. Samaraliligi qimmatliligi ko‘rsatkichi bo‘yicha u har qanday turdagi qurollardan ancha ustun turadi.

Aslida axborot qurolini bir qator jihatlari mavjud bo‘lib, axborot quroli axborot infratuzilmasiga qarshi qaratilgan jami ixtisoslashtirilgan (fizik, axborot, dasturiy, radioelektron) uslublar va vositalar. Ular infratuzilmaning butunlay yoki uning alohida elementlarining vazifalari va xizmatlarini vaqtinchalik yoki tiklab bo‘lmas darajada ishdan chiqarish uchun mo‘ljallangan va axborot urushida dushmanga axborot ta‘sirini o‘tkazishni amalga oshirish imkonini beruvchi vosita va uslublar majmuasi hamda zarar yetkazish kuchi mamlakatning axborot sohasi obyektlari va uning qurolli kuchlarini vayron qilish, bostirish, (muhofazasini) yengishga asoslangan mahsus quroldir.

Bu borada axborot infratuzilmasi to‘g‘risida aytish mumkinki, bu axborot resurslari, jumladan axborot xizmatlari va ommaviy axborot vositalarini shakllantirish, tarqatish va ulardan foydalanish tizimi hamda mamlakatning axborot makoni hamda fuqarolar va tashkilotlarning axborot resurslaridan foydalanishni ta‘minlovchi axborot aloqada o‘zaro ishlash vositalarining faoliyati va rivojlanishini ta‘minlovchi jami tashkiliy tuzilmalardir.

Shuningdek, axborot xavfsizligiga turlicha ta‘riflar berish mumkin. Masalan, axborotning uning egasiga zarar keltiradigan tasodif yoki qasddan qilingan tahdidlarga (xavf-xatarlarga) chidamliligining umumlashgan xossasi va axborotning holati axborot tashuvchisining (axborotlashtirish obyekti, ma‘lumotlarni uzatish tarmog‘i va boshqalarni) uni qayta ishlash, saqlash va butunlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lib qolishini ta‘minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga axborotning chiqib ketishi, soxtalashtirilishi, nusxa olinishi, o‘zgartirilishi, oshkor bo‘lishi,

buzilishi, qamal qilinishiga olib keluvchi beruxsat tasodifan yoki qasddan qilingan amallardan muhofazalanganligi tushuniladi.

O'zbekistondagi davriy nashrlar, umuman, an'anaviy OAVdan tashqari ijtimoiy tarmoqlarning bevosita o'zida ham Vatanimizni ulug'lovchi, uning tarixi va madaniyatiga e'tiborli kishilarni jamlagan ijtimoiy guruhlar mavjud. Zero, ular ham jahon media makonida diyorimiz obro'sini yanada oshirish borasida katta xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda raqamli jamiyatda yoshlarning ijtimoiy qiziqishini o'zida mujassamlashtirgan saytlar rivojlanib, ularga mo'ljallangan saytlar mazmuni va vazifalarini mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik islohotlarga asoslangan axborot xavfsizligini ta'minlashga erishadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y., Basic Books, Inc., 1973. – P. 39-59.
2. Masuda Y. “The Information Society”. Washinton. D.S., USA., 2020. – P. 165.
3. Hayashi Y. “Information Security Risk Managment”. Conference. Publisher: IEEE., 2020. – P. 95.
4. Castells M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I. Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. - P 594.
5. Бекмуродов М. Замоनावий бошқарув социологияси//Монография. –Тошкент: “Ёшлар”? 2020. – Б 9.
6. Ташмухамедова Д. Виртуал тармоқлар Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий ролини шаклланиш омили сифатида. Соц.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2024. – Б. 28.
7. Bunz M., Meikle G. The Internet of Things. Cambridge, MA: Polity, 2018. – P. 292.
8. Юлдашев А. Основы информационной безопасности Республики Узбекистан. – Тошкент: Академия, 2006. – С. 153.
9. Отамурадов С.С. Янги Ўзбекистон ёшлар ижтимоий-инновацион фаолиятида кечаётган трансформацион жараёнлар (социологик таҳлил). Соц.ф.д... дисс. автореф. – Тошкент: 2021. – 63 б.
10. Brennen S., Digitalization and Digitization – Culture Digitally. Available at: World Internet Users, Cambridge: Polity Press, 2020. – P. 31-44.
11. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. New York: Public Affairs, 2019. – P. 704.
12. Абдулхаев Б.А. Ахборот психологик экспансия миллий хавфсизликка таҳдид сифатида.// Хавфсизлик психологияси илмий-амалий конференция материаллари (2008 йил 15 март). – Тошкент 2008. – Б. 251.
13. Lee S.J. Online Communication and Adolescent Social Ties: Who benefits more from Internet use? // Journal of Computer-Mediated Communication. 2009. 14 (3). – P. 509-531.
14. Berger K.P. Domain name law and practice: An International handbook // Edit. by T. Bettinger (gen. edit.). - Oxford: Oxford University Press, 2005. - P. 29-31.
15. Жиянмуратова Г.Ш. Ўзбекистон ёшларининг электорал маданияти. **Соц.ф.ф.д. дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – 28 б.**
16. Рахимова Ш.А. Ижтимоий тизимни модернизациялаштириш жараёнида ахборот алмашинуви маданияти. **Соц.ф.ф.д. дисс... автореф. – Тошкент, 2021. – 62 б.**
17. Beck U. The Metamorphosis of the World: How Climate Change is Transforming Our Concept of the World. Cambridge, Malden: Polity, 2016. – P. 240.
18. Livingstone S. On the Mediation of Everything: ICA Presidential Address 2008 // Journal of Communication. 2009. No.1. – P. 1–18.
19. Selwyn N. What is Digital Sociology? Cambridge, UK: Polity Press, 2019. – P. 134.
20. Прончев Г.Б., Монъахов Д.Н. От цифры к цифровому обществу // Вопросы политологии. 2020. Т. 10. № 6 (58). – С. 1763–1771.

21. Шилникова И.С., Зайюкова И.В., Пашыкова И.В. Термин DIGITAL в цифровом мире // Russian Linguistic Bulletin. 2020. Т. 22. № 2. – С. 16–20.
22. Brennen S., Digitalization and Digitization — Culture Digitally. Available at: World Internet Users, Cambridge: Polity Press, 2020. – P. 31-44.
23. Бурякова О.С. Влияние социальной функции информации на концепции информационного общества // Международный журнал экспериментального образования, 2016. –№4-1. – С. 178-182.
24. Амиров Д.М. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2020. – Б. 30.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000